

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



2022- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajm 14 014,8 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 101,2 %, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 13 450,6 mlrd. so‘mni (101,0 %), o‘rmonchilik xo‘jaliklari 477,9 mlrd. so‘mni (103,0 %), baliqchilik xo‘jaliklarida 86,3 mlrd. so‘mni (135,1 %) tashkil qildi.

Xususan, yuqori o‘shish sur‘atlari O‘rta Chirchiq (104,4 %), Yuqori Chirchiq (104,4 %), Quyi Chirchiq (104,3 %) va Toshkent (102,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Qibray (91,9 %) va Piskent (98,1 %) tumanlarida past o‘shish sur‘atlari bilan yakunlandi.


**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan
(ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda hududlarning ulushi**

	<i>2022- yil yanvar-iyun, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</i>	<i>Umumiy hajmda hududlarning ulushi, %da</i>
Toshkent viloyati	14 014,8	101,2	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	37,7	100,4	0,3
Olmaliq	67,6	100,2	0,5
Angren	178,1	100,0	1,3
Bekobod	135,1	101,7	1,0
Ohangaron	25,8	100,7	0,2
Chirchiq	116,3	101,7	0,8
Yangiyo‘l	8,6	100,5	0,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	899,8	100,2	6,5
Ohangaron	573,0	101,2	4,1
Bekobod	1 458,3	100,7	10,5
Bo‘stonliq	1 079,5	100,6	7,8
Bo‘ka	833,2	100,0	6,0
Quyichirchiq	910,8	104,3	6,6
Zangiota	815,2	100,1	5,9
Yuqori Chirchiq	942,7	104,4	6,8
Qibray	801,8	91,9	5,8
Parkent	526,8	102,0	3,8
Piskent	789,0	98,1	5,7
O‘rta Chirchiq	1 244,3	104,4	9,0
Chinoz	866,0	101,9	6,3
Yangiyo‘l	864,9	101,7	6,3
Toshkent	652,8	102,8	4,7

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi


	<i>2022- yil yanvar-iyun, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</i>	<i>Umumiy hajmda kichik biznes ulushi, %da</i>
Toshkent viloyati	13277,1	101,0	94,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	36,9	100,0	99,8
Olmalik	66,2	100,1	98,4
Angren	173,8	100,0	97,7
Bekobod	134,0	101,7	99,7
Ohangaron	24,6	100,6	99,3
Chirchiq	115,1	101,7	99,9
Yangiyo‘l	8,1	99,2	99,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	854,3	100,0	96,0
Ohangaron	524,2	100,4	91,4
Bekobod	1419,2	100,6	97,4
Bo‘stonliq	1024,8	100,4	95,1
Bo‘ka	790,5	99,3	95,9
Quyichirchiq	820,1	103,5	81,7
Zangiota	790,5	100,3	93,9
Yuqorichirchiq	921,5	104,7	96,1
Qibray	769,2	92,0	91,4
Parkent	501,3	101,6	98,0
Piskent	748,4	97,7	88,3
O‘rtachirchiq	1198,8	104,1	96,1
Chinoz	843,9	101,8	96,1
Yangiyo‘l	822,3	102,0	88,7
Toshkent	629,6	102,8	96,3

**2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) hajm,
mlrd. so'mda**




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining (xizmatlari)ning katta hajmi Bekobod tumanida – 1 458,3 mlrd. so'mni tashkil etib, hududlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichni tashkil qildi. O'rta Chirchiq va Bo'stonliq tumanlarida mos ravishda 1 244,3 mlrd. so'm va 1 079,5 mlrd. so'm kuzatildi. Eng kam hajmi Yangiyo'l (8,6 mlrd. so'm) va Ohangaron (25,8 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar (xizmatlar)
umumiy hajmida hududlarning ulushi**



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning umumiy hajmida Bekobod tumanining ulushi 10,7 %ni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. O‘rta Chirchiq (8,1 %), Bo‘stonliq (7,7 %) va Yuqori Chirchiq (6,9 %) tumanlari keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Yangiyo‘l (0,1 %), Ohangaron (0,2 %) va Nurafshon (0,3 %) shaharlarida qayd etildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining
xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2022- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o‘shishi 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,0 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 98,7 %ni hamda chorvachilik mahsulotlari 102,3 %ni tashkil qildi.

Dehqonchilik. 2022- yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 345,6 ming tonna sabzavot (2021- yilning shu davriga nisbatan 100,7 %) yig‘ib olindi.

Bundan tashqari, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 138,7 tonna kartoshka qazib olindi, 37 082 tonna meva va rezavorlar yetishtirildi.

**2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida
asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**




Yetishtirilgan sabzavot ekinlarining yuqori ko'rsatkichlari Bekobod (71 456,4 tonna), O'rta Chirchiq (45 935,0 tonna) va Chinoz (34 639,0 tonna) tumanlarida tashkil etgan bo'lib, past ko'rsatkichlar Bekobod (11,0 tonna), Yangiyo'l (63,1 tonna), Ohangaron (111,0 tonna) shaharlariga to'g'ri keldi. Kartoshka qazib olish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlari Quyichirchiq (22 550,7 tonna), Bo'stonliq (20 128,3 tonna) va Piskent (14 594,7 tonna) tumanlarida tashkil etgan bo'lib, past ko'rsatkichlar Yangiyo'l (38,9 tonna), Olmaliq (46,0 tonna), Ohangaron (100,0 tonna) shaharlariga to'g'ri keldi.

Chorvachilik. 2022- yilning 1- iyul holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,4 %ga (jami 910 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,2 %ga (397,0 ming bosh), qo'y va echkilar 106,2 %ga (1 072,5 ming bosh), otlar 104,5 %ga (54,3 ming bosh), parrandalar 98,3 %ga (14,2 mln. boshga) ko'paydi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 87,3 %ni, sut ishlab chiqarishda 97,7 %ni, tuxum ishlab chiqarishda 71,6 %ni tashkil etdi.

**2022- yil 1- iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**



Eng ko‘p qo‘y va echkilar Ohangaron (249,1 ming bosh), Bo‘stonliq (165,3 ming bosh) va Parkent (110,5 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkichlar Yangiyo‘l (0,9 ming bosh), Ohangaron (1,8 ming bosh) va Nurafshon (3,9 ming bosh) shaharlariga to‘g‘ri keldi.


Parrandalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Zangiota (3 984,2 ming bosh), Qibray (1 567,7 ming bosh), Bo‘stonliq (1 478,1 ming bosh) va Piskent (1 197,7 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (4,6 ming bosh) va Nurafshon (5,9 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

2022- yil 1- iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>Ming.bosh</i>	<i>O‘shish sur‘ati, %da</i>
Yirik shoxli qoramol	910,0	102,4
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	82,2	119,6
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	790,8	101,5
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	37,0	90,3
Ulardan sigirlar	397,0	101,2
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	24,6	117,0
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	363,0	101,3
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,4	73,4
Qo‘y va echkilar	1 072,5	106,2
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	343,3	111,9
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	669,2	100,4
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	60,0	162,3
Otlar	54,3	100,7
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	10,4	110,3

	Ming.bosh	O'sish sur'ati, %da
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	41,8	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,1	68,8
Parrandalar (ming bosh)	14 218,9	91,5
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo'jaliklari	150,1	54,7
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	8 619,5	102,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5 449,3	79,4


**Chorva mollari va parrandalar bosh sonida
xo'jaliklar toifalarining ulushi**




Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 86,9 %ni, fermer xo‘jaliklarida esa 9,0 %ni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 91,4 %ni va 6,2 %ni, qo‘y va echkilar 62,4 %ni va 32,0 %ni, otlar 77,0 %ni va 19,2 %ni, parrandalar 60,6 %ni va 1,1 %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 149,5 ming tonna go‘sht (2021- yilning mos davriga nisbatan 1,8 %ga ko‘p), 473,9 ming tonna sut (1,0 %ga ko‘p), 517,6 mln. dona tuxum (26,2 %ga kam) ishlab chiqarilgan.

**Yirik shoxli qoramollar
(ming bosh)**



**shu jumladan: sigirlar
(ming bosh)**




Yirik shoxli qoramollar hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Bo'stonliq (86,4 ming bosh), Bekobod (75,4 ming bosh) va Bo'ka (71,6 ming bosh) tumanlarida, aksincha past ko'rsatkich Olmaliq (2,4 ming bosh), Yangiyo'l (2,6 ming bosh), va Ohangaron (4,1 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

Shu jumladan, sigirlar eng yuqori ko'rsatkich Bo'ka (41,9 ming bosh) va Yangiyo'l (35,1 ming bosh) tumanlariga, aksincha past ko'rsatkich Yangiyo'l (0,3 ming bosh) va Ohangaron (0,4 ming bosh) shaharlariga to'g'ri keldi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari


	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming t.	149,5	101,8
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo'jaliklari	3,2	76,0
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	127,4	101,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	18,9	110,9
Sut, ming t.	473,9	101,0
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo'jaliklari	21,1	104,9
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	441,8	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,0	74,1
Tuxum, mln. dona	517,6	84,8
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo'jaliklari	1,8	40,5
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	369,0	105,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	146,8	57,3

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi
(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan % hisobida)



2022-yil yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xo'jaliklar kesimida tahlil qilinganda, go'sht ishlab chiqarish 85,2 %, sut ishlab chiqarish 93,2 %, tuxum ishlab chiqarish esa 71,3 % ulush qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hisobiga to'g'ri keladi.


2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



2022- yil yanvar-iyun oylarida go'sht ishlab chiqarish hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p ishlab chiqargan hududlar O'rta Chirchiq (13,3 ming tonna), Bo'stonliq (12,9 ming tonna) va Yangiyo'l (11,0 ming tonna) tumanlari bo'lsa, Yangiyo'l (0,1 ming tonna), Ohangaron (0,2 ming tonna) va Nurafshon (0,6 ming tonna) shaharlarida esa kam ishlab chiqarilgan.

Bo'stonliq (58,4 ming tonna), Bo'ka (39,2 ming tonna), Bekobod (34,7 ming tonna) va Parkent 33,5 ming tonna) tumanlari sut ishlab chiqarish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlardan o'rin olgan bo'lsa, aksincha Bekobod (0,9 ming tonna) va Yangiyo'l (1,0 ming tonna) shaharlari sut ishlab chiqarish bo'yicha past ko'rsatkichlardan o'rin egalladi.

Tuxum (mln. dona)



Viloyatda tuxum ishlab chiqarish bo'yicha 2022-yil yanvar-iyun oylarida eng yuqori ko'rsatkich Zangiota (88,8 mln. dona), Yuqori Chirchiq (78,3 mln.dona), O'rta Chirchiq (52,7 mln. dona) va Yangiyo'l (45,5 mln. dona) tumanlarida, aksincha past ko'rsatkich Yangiyo'l (0,4 mln. dona), Nurafshon (0,5 mln. dona) va Olmalik (0,8 mln. dona) shaharlarida kuzatildi.

Fermer xo'jaliklari. 2022-yil yanvar-iyun oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1 438,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 10,8 %ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-iyun oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan
ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari**

	yanvar-iyun				2021- yanvar- iyuniga nisbatan % hisobida
	2021- yil		2022- yil		
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %	
Kartoshka	5 768,8	4,2	8 279,0	6,0	143,5
Sabzavot	26 832,9	7,8	21 738,0	6,3	81,0
Go'sht, tirik vaznda	4 150,8	2,8	3 153,0	2,1	76,0
Sut	20 128,9	4,3	21 119,0	4,5	104,9
Tuxum, mln. dona	4 639,5	0,8	1 881	0,4	40,5

2022- yilning 1- iyul holatiga fermer xo'jaliklarida 82,2 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 24,6 ming bosh sigir, 343,3 ming bosh qo'y va echkilar, 10 422 bosh ot, 150,0 ming bosh parrandalar mavjudligi tasdig'ini topdi.